

**Ashurxon MATKARIMOVA,**

*University of economics and pedagogy dotsenti, f.f.f.d.*

*E-mail: sanam\_2004@mail.ru*

*Tel.: +998914788372*

**Dildoraxon YULDASHEVA,**

*University of economics and pedagogy assistenti,*

*Tel.: +998997856672*

*ADChTI professori, f.f.d. V.A. Vositov taqrizi asosida*

## CATEGORY OF PERSONAL ATTITUDE IN COMMUNICATION

### Annotation

The article is devoted to the pragmatic and linguoculturological peculiarities of language units which are used for honorific aims in the languages of different morphological structure.

**Key words:** Person, lexical, morphological, caress, diminutives, pragmatics, linguoculturology

## КАТЕГОРИЯ ЛИЧНОГО ОТНОШЕНИЯ В ОБЩЕНИИ

### Аннотация

Статья освещает прагматические и лингвокультурологические особенности языковых элементов использующихся для возвеличивания личности человека в разносистемных языках.

**Ключевые слова:** Личность, лексический, морфологический, ласкать, диминутивность, прагматика, лингвокультурология.

## MULOQOTDA SHAXSIY MUNOSABAT KATEGORIYASI

### Annotatsiya

Maqolada turli tizimli tillarga xos bo‘lgan inson shaxsini sharaflovchi leksik va morfologik vositalarning pragmatic va lingvokulturologik jihatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shaxs, leksik, morfologik, erkalash, kichraytirish, pragmatika, lingvokulturologiya.

**Kirish.** Muloqotda shaxsiy munosabatni ifodalovchi leksik-morfologik vositalar uslubiy bo‘yoqlari o‘chiq-oydin sezilib turadi. Shuning uchun shoir hamda yozuvchilar obraz va personajning xarakter-xususiyatini ochishda, uning nutqini o‘ziga hoslashda shaxsiy munosabatni ifodalovchi vositalarga murojaat qiladi. Shaxsiy munosabatni ifodalovchi vositalar ko‘proq badiiy nutq va so‘zlovlari nutqi uchun xarakterli tasviriy vositadir. Xullas, shaxsiy munosabatni ifodalovchi vositalar uslubiy qiyimi uning turli xil ma’no nozikligini hosil qilish, baholash hislatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Shaxsiy munosabatni ifodalovchi vositalarning ma’nosini hosil qilishning fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari ham bor, lekin o‘zbek tilida shaxsiy munosabatni ifodalovchi vositalar ma’nosini asosan morfologik usul bilan, ya’ni so‘z asosiga shaxsiy munosabat ma’nosini ifodalovchi turli xil qo‘shimchalarini yoki affiksoidni qo‘shib hosil qilinadi. Shaxsiy munosabatni ifodalovchi vositalarga oid morfologik shakl qadimgi turkiy til (V - VII asr ), eski turkiy til (XI - XIV) davriga oid yozma yodgorliklar tilida ham mavjud bo‘lgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** G. Abdurahmonov va A.Rustamovlarning “Qadimgi turkiy til” kitobida yozilishicha, qadimgi turkiy tilda -ak (-aq) -ki (-qi) -chik (-chiq) -ch kabi kichraytirish va erkalash qo‘shimchalari mavjudligi ko‘rsatiladi. O‘zbek tilida erkalashni bildiruvchi “-ki” qo‘shimchasi ham mavjud.

O‘zbek tili bosqcha turkiy tillardan farqli o‘laroq, erkalash ma’nosini ifodalash uchun maxsus, ya’ni kichraytirish bilan bog‘liq bo‘limgan qo‘shimchaga ega. O‘zbek tilida xilmal-xil leksik ma’noli otdan erkalash shaklini yasash mumkin. Bu guruhga kiruvchi shaxsiy munosabatni ifodalovchi vositalar so‘zda, asosan, erkalash ma’nosini keltirib chiqarish uchun xizmat qiladi. Ammo u nutqiy sharoit, urg‘u, ohang bilan bog‘liq ravishda kichraytirish (diminutival) (-let, -lette, -(e)tte, -ling, -tie, -en, -ly, -y - booklet, briquette, novelette, duckling, auntie, daddy, kitten, puppy, chicken); piching (tease, caustic comment, rude mark), kesatish (irony), kinoya (allegory) ma’no ottenkasini ifodalashda ham ishtirok etadi. Otning erkalash ma’nosiga ega bo‘lgan lug‘aviy shakl -gina (-kina, -qina) -jon, -xon, -boy, -bek, -qul, -toy, -oy, -bek, -poshsha, -bibi, -bonu, -niso, -pari, -gul, -loq (-y, -ling, -ie, -el, -erel, -ny, -sy, -heart William - Willy (Billy), Elizabeth- Zibby, darling, bonny, horsy, sweetheart, bud) kabi qo‘shimchalar vositasida hosil qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Erkalash so‘zi va uning qardosh tillarda ifodalananish vositalari o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlari ustida hali yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan emas. Aynan erkalash va kichraytirish so‘zlar bo‘yicha olib borilgan bir qancha ilmiy ishlar bilan tanishib chiqqanimizda, Nishiniadze N.Sh. (1986), Rasulova M.I. (1981), Grigoryev L.L., Banushkin N. va boshqalarning ishlarida erkalash va kichraytirish so‘zlar alohida ajratib o‘rganilmagan.

**Tahlil va natijalar.** Ma’lumki, erkalash so‘zi mayinlik, mehrbonlik, nozik, nafis, mehr bilan suyish, mehr-shafqat ko‘rsatish, insonga o‘zining yaqinlariga bo‘lgan samimiy muxabbatini ifoda etish demakdir. Erkalash faqatgina biror-bir kishini boshiga yoki tanasiga tegib silab-siyupalashgina emas, balki u kishiga nisbatan o‘z mehrini so‘z bilan, ibora bilan yoki gap bilan (til vositalari) namoyon etish ham demakdir. Ammo kichraytirish so‘zi bu hajm, shakl va o‘lcham jihatdan qisqartirish, maydalash ma’nosini bildiradi.

Erkalash so‘zining lingvokulturologik tahlili uning ingliz va o‘zbek tillaridagi milliy va madaniy xususiyatlarini namoyon qilishga yordam beradi.

Ingliz va o‘zbek tillarida erkalash so‘zini ifodalovchi vositalar o‘ziga xos shaklga ega. Erkalash so‘zining leksik ma’nolari ekvivalentlik borasida ingliz va o‘zbek tillarining milliylik va umumiylilik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, o‘zbek tilida bolalar va qizlar uchun asalginam, shakarginam deb murojaat qilish orqali erkalash ifodalansa, ingliz tilida my honey, my darling kabi vositalar qo‘llaniladi. Asal so‘zi aynan ikki til uchun erkalash ma’nosida ishlatsa, shakar so‘zi esa erkalash ma’nosida faqatgina o‘zbek tiliga xos bo‘lib, tilning milliylik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘llaniladi.

Ingliz tilidagi shakar (sugar) so‘zi erkash ma’nosini beruvchi muqobil variant bo‘la olmaydi. Shakar so‘ziga ekvivalent sifatida sweet so‘zini olishimiz mumkin. Bizningcha, bu yerda shakarginam so‘zini my sweet iborasi bilan muqobil deb olsak xato bo‘lmaydi.

O‘zbek tilida atoqli otlar ham erkash ma’nosini bersa, ingliz tilida atoqli otlarga affikslar qo‘shilishi orqali emas, balki ularni qisqartirish orqali hosil qilinadi. Erkash ma’nosini shaxsiy munosabatni ifodalovchi vositalar semantik mundarijasiga ko‘ra uch guruhga bo‘lish mumkin: 1) erkak va ayol jinsini bildiruvchi so‘zning har ikki guruhga qo‘shilib, erkash ma’nosini ifodalovchi shakl (-gina, - kina, - qina, - vachcha, - loq) kabilar. Richard - Dick, Hick, Dicky, Hickey, Richie, Rick, Rich, Ricky; Susan - Sue, Suey, Suke, Sukey, Suky, San, Susie, Susy, Suzy.

2) erkaklik jinsiga qo‘shilib erkash ma’nosini ifodalovchi shakl (-jon, -boy, - bek, - qul) kabilar: David - Dave, Davey, Davie, Davy.

Qizlarga nisbatan g‘uncha (bud) erkash so‘zi qo‘llanilsa, o‘zbek tilida gul-g‘uncham so‘zi ekvivalent sifatida qo‘llaniladi. Bu yerda birinchi misolda erkash so‘zining milliylik, ikkinchi misolda esa ikki tilning umumiylilik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ekvivalentlari tanlanadi.

3) ayol jinsini bildiruvchi otga qo‘shilib erkash ma’nosini bildiruvchi shakl (- xon, - oy, - gul, - bonu, - beka, - bibi, - niso) kabilar.

Anne - Anita, Ann, Annetta, Annie, Annye, Nancy, Nan.

Yosh bolalarga nisbatan bo‘talogsim, qizalogsim, toychoqqinam, qo‘zichogsim kabi erkash so‘zlari qo‘llanilsa, ingliz tilida esa bonny, bunny, girlie, kiddy kabi shakllar qo‘llaniladi. Bu yerda toychogsim erkash shakli ingliz tilida my horsy emas, balki my bonny - olmaxon ma’nosini beruvchi so‘z shakli orqali ifoda etiladi.

-gina (-kina, -qina) qo‘shimchasi. Otga, otlashgan so‘zga -gina, -kina, -qina qo‘shimchalari qo‘shilib, erkash ma’nosini bildiradi.

Masalan: 1. Oyqizginam, sen bilan maslahatlashadigan ishlarim ko‘payib ketgan[1].

2. Bolaginam, nay chalyapti - ko‘zimning nuri [5].

3. Tentakkinangiz savlatligina yigit bo‘lib qaytdi-ya soldatlikdan.

- Bolaginam, qalblaringiz sizlarni aldamabdi, to‘g‘ri fikrga kelib yaxshi ish qilibsiz. Siz ingliz bolalarisiz, bu nomga dog‘ tushirmay, inglizligingizcha qolasis. [3] – My boys, your hearts are in the right place, you have thought the worthy thought, you have done the worthy thing. You are English boys, you will remain English boys, and you will keep that name unsmirched [2].

Ba‘zan kichraytirish qo‘shimchasi bilan erkash qo‘shimchasi qo‘shaloq holda kelishi mumkin:

Masalan: Toychoqqinam, ho‘jalik osongina tuzilmagan,... qon to‘kkanimiz [4]

Kichraytirish, erkash, kuchaytirish, cheklash, chegaralash, ayirib ko‘rsatish kabi ma’nolarni beruvchi -gina (-kina, -qina) qo‘shimchalaridan farqlash lozim. Beloved - sweet friends, loving friends, dearest friends.

Murojaat paytida A. Vejbiska “Mum, Dad” kabi shakllarni beradi (Vejbiska A.: 1997, 2001). Shuni ham ta‘kidlash joizki, nafaqat ingliz va o‘zbek yoki boshqa tillarda, balki rus tilida ham bolalarga nisbatan qo‘llaniladigan “Голубка ты моя, поросенок ты мой” kabi erkashni ifodalovchi leksik vositalar ham mavjudki, bu milliy-madaniy xususiyatni anglatса ajab emas. Ammo turkiy tillarda rus tilidagidek iboralar bolalarini erkatalish uchun ishlatalmaydi.

-loq (-oq) qo‘shimchasi. Bu qo‘shimchani olgan leksema kichraytirish, erkash ma’nosini bildirishga xizmat qiladi: chaqaloq, qizaloq, bo‘taloq, toychoq, qo‘zichoq kabilar. Childish, girlie, young camel, colt.

Masalan: 1) Bo‘taloq onasiga yetolmay qiynalib orqada qoldi [5].

2) Tug‘ildi-yu tong chog‘i jajji chaqaloq, qo‘llarini tipirlatib yig‘ladi shuchog‘ [5].

3) Ha, shuncha qoldi, qizalogsim! - deb ikki barmogsimini ko‘rsatdi [3].

Shaxsiy munosabatni ifodalovchi shunday vositalar ham borki, u faqat kishini bildiruvchi atoqli ot va qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so‘zga qo‘shilib so‘zlovchingin voqe-hodisaga munosabatini bildiradi. Bunday guruhga kiruvchi qo‘shimcha, asosan, erkash va his-hayajonni bildirish uchun xizmat qiladi.

Erkaklik jinsini bildiradigan yoki shunga aloqador so‘zga qo‘shilib, erkash ma’nosini hosil qiladigan qo‘shimchaga -jon, -boy, -bek, -qul, -toy affiksleri kiradi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili me‘yoriy va tarixiy milliy anana nuqtai nazaridan Rahim ismini Rahimjon, Rahimboy, Rahimbek, Rahimtoy shaklida, Ahmad ismini Ahmadboy, Ahmadjon, Ahmadbek, Ahmadqul deyish ma‘qul. Ingliz tilida atoqli otlarning John – Johnnie, Johnny; James – Jamie, Jemmie, Jemmy kabi shakllari mavjud.

Erkaklik jinsiga oid otga qo‘shiluvchi qo‘shimchalar ichida -jon jins uchun befarq. Bu qo‘shimcha qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so‘zda erkaklik jinsiga oid so‘zga ham (otajon, dadajon, bobojon, akajon, dad, daddy kabilar), ayollik jinsiga oid so‘zga ham (onajon, opajon, holajon, ovsinjon, mum, mummy, auntie kabilar) qo‘shila oladi. Shuningdek, -jon va -xon shakllari qo‘shilib, Azizjon, Lazizjon, Musaxon, Botirxon tarzda ishlatalishi, bir tomondan shevaga oid xususiyat bo‘lsa, ikkinchi tomondan u tarixiy milliy anana bilan bog‘liq. Charles - Charley, Charlie, Charly, Chick, Cholly, Chuck.

Demak, o‘zbek tilida -jon va -xon qo‘shimchalarini atoqli ot doirasida sinonim sifatida birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llash mumkin: Lazizjon - Lazizzon, Botirjon - Botirxon, O‘g‘iljon - O‘g‘ilxon, Musajon - Musaxon kabilar. Michael - Spike, Mick, Mickey, Micky, Mike, Mikey [Рыбакин А.И.: 2000]

Eslatma: -bek, -xon, -gul, -oy affiksoidlari kishi ismining tarkibiy qismiga kiritilishi, uning ajralmas komponenti bo‘lishi mumkin. Bunda erkash ma’nosini ifodalananmaydi: Durbek, Qushbek, Oyxon, onajon, Oygul, Rahimtoy kabilar. Margaret - Mary (Marisa), Mae, Mag, Maggie, Magsie, Maidie, Maisie, Mamie, Marge, Meg, Megan, Meggie, Meggy, Moggie, Mysie.

-jon qo‘shimchasi. Bu affiksoid kishi atoqli otidagi kabi qavm-qarindoshlik atamasini tarkibida ham asosan, erkash ottenkasi shaxsiy munosabatni bildirish uchun xizmat qiladi. Mummy, Daddy, Auntie, Granny.

Masalan: 1. Ho‘p, dadajon! Raxmat, dadajon! - dedi Hilola boshini dadasining yelkasiga qo‘yarkan. - O‘zimning dono dadajonim!

2. Meni hayol olib ketdi senga onajon!

3. Buvijonim! - deb o‘rnimdan turib, yugurib yuqoriga chiqsam, ha-ha, buvijonim, belini oq doka bilan bog‘lab, boshiga sallasini o‘rab olibdi.

4. - Akajon, bormisiz, akajon!

5. Xafa bo‘ima ukajon, akang bilan dadangni chiqarib yuborishadi.

6. Orqangizdan boraymi opajon? - yana pichirlab so‘radi qovunfurush [4, 231]

-jon affiksidiagi qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so‘zdan tashqari, murojaat so‘zida ham ishlataladi. Bunday holda ham so‘zlovchingin nutqqa qaratilgan shaxsga munosabati ifodalananib, u ijobiy bo‘ladi.

Masalan: 1. O'rtoqjon, men sening rahbarligingda odam bo'laman deb, etagingni mahkam ushlaganman.

2. E - e, doktorjon, bu joylarning nimasini aytasiz, turgan-bitgani mo'jiza! [5, 89]

-jon shaklidan keyin esa ba'zan egalik qo'shimchasi qo'shiladi va bunda erkalash ma'nosi kuchayadi:

Masalan: 1. Bolam, bolajonim! Bu so'zni qanday topding?

Ba'zan -jon qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so'zdan oldinga o'tkaziladi, u mustaqil so'z sifatida ko'rindi. Egalik qo'shimchasi esa qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so'zga qo'shiladi:

Masalan: 1. Qayoqqa borasiz, jon bolam, men sizni hech qayerga qo'yib yubormayman [5, 65]

Egalik qo'shimchasi har ikkala so'zga qo'shilib kelish holati ham kuzatiladi. Bunda erkalash ma'nosi kuzatiladi:

Masalan: Tez o'sib katta bo'lsin, jonio bolam, alla,

Mening tilak - maqsadim shuning o'zi, alla (Xalq og'zaki ijodi).

Shaxsiy munosabatning kichraytirish (diminutival), erkalash (caress), hurmat (respect) ma'nosining turli xil qo'shimcha yoki affiksoid yordamida ifodalaniши ingliz va o'zbek tillarida keng tarqalgan.

Masalan: qizcha (girlhood), yigitcha (chappy, laddie, stripling), kelinchak (young married woman), qo'zichoq (little lamb) kabi so'zlardagi -cha, -choq, -chak qo'shimchalari kichraytirish ma'nosini anglatsa, bolagina, ukajon, holajon, akajon, Rahimboy, Qo'chqortoy, Gulsinbibi, Ra'noxon, Mohirabonu kabi so'zlardagi -gina, -jon, -xon, -toy, -boy, -bibi, -bonu kabi affiksoid erkalash (ko'p hollarda) va kamsitish (ba'zan) ma'nosini keltirib chiqaradi. Demak, shaxsiy munosabatni ifodalovchi til vositalarini kichraytirish, erkalash, hurmat ma'nosini bildiruvchi guruhlarga bo'lishimiz lozim.

**Xulosa va takliflar.** Bunday guruhash bir jihatdangina to'g'ri, chunki shaxsiy munosabatni ifodalovchi til vositalari o'z ichida leksik-grammatik qurshov, nutqiy muhit, ohang, fikr kimga qaratilganligi bilan bog'liq ravishda yana turli-tuman ma'no nozikligini keltirib chiqarishi yoki ayrim shakl ham kichraytirish, ham erkalash, kamsitish, hurmatlash ma'nosini anglatishi mumkin. Masalan: do'ndiqcha (pretty/pleasing girl, woman), kelinchak (young married (peasant) woman) turidagi so'zlar ham kichraytirish, ham erkalash va hurmatlash ma'nolarini ifodalashi mumkin. Shaxsiy munosabatni ifodalovchi til vositalariga oid shakl faqatgina kichraytirish, erkalash va hurmat ma'nosinigina bildirmaydi, balki bundan his-hayajon (munosabat) ma'nosining kelib chiqishida ishtirok etadi. Modal ma'no gapiruvchanligi bilan yoshi, ijtimoiy o'rni va u kim haqida gapirilayotganligi bilan bog'liq ravishda chegara qo'yish mumkin emas. Ayniqsa, kichraytirish va erkalash ma'nolari bir-biridan shu darajada chatishib ketganki, ularni bir-biridan chegaralash qiyin. Shaxsiy munosabat kategoriysi so'zning leksik ma'nosini o'zgartirib yubormaydi (uning so'z yasovchilik xususiyati va vositasi o'rgimchak (spider), qo'g'irchoq (doll, toy, puppet), bog'cha (garden) kabi so'zlar bundan mustasno), balki asosdan anglashilgan ma'noga qo'shimcha (konnotativ) ma'no kiritiladi, ya'ni stul va stulcha so'zlar ikkita so'z bo'lsa ham, asosan bitta narsani bildiradi.

Ingliz va o'zbek tillarida erkalash so'zining lingvokulturologik tahlili, uning ingliz va o'zbek tillaridagi milliy va madaniy xususiyatlarini keng namoyon qilishiga imkon beradi. Shuningdek, uning ekvivalentlik xususiyatlarining tahlili esa ikki til vakillarining o'zaro muloqoti vaqtida bir-birini chuqurroq anglashni ta'minlaydi.

## ADABIYOTLAR

1. Бобур З.М. Бобурнома. - Тошкент: "Шарқ", 2002. - 71-бет
2. Драйзер Т. Дженини Герхадт. - М., 1982
3. Ёкубов О. Улугбек ҳазинаси. - Тошкент: 1994
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том Москва: "Рус тили" нашриёти, 1981. -61-бет.
5. Кодирий А. Ўтган кунлар. - Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994
6. Фозиев Э. Муомала психологияси. - Тошкент, 2001